

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLARNING  
SAMARADORLIGI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA AMALIYOT**

*Davlatova Saidaxon Tojimuxammadovna*

*Qo'qon Universiteti*

*Ta'lim kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limning poydevor sifatidagi o'rni va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ayniqsa interfaol metodlarning dars jarayoniga ijobiy ta'siri haqida so'z yuritiladi. Interfaol metodlarning samarali turlari, ularning o'quvchilar tafakkuriga ta'siri, darsni innovatsion tarzda tashkil qilish usullari misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va zamon bilan hamnafas bo'lishi ta'lim sifatining muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, zamonaviy o'qituvchi

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль начального образования как основы всей образовательной системы и влияние современных педагогических технологий, в частности, интерактивных методов, на эффективность учебного процесса. Приведены примеры успешного применения интерактивных методов и их влияние на развитие мышления учеников. Также подчеркивается значение профессиональных компетенций учителя в условиях стремительного развития современного общества.

**Ключевые слова:** начальное образование, интерактивные методы, педагогические технологии, профессиональная компетентность, современный учитель

**Annotation:** This article explores the foundational role of primary education and the positive impact of modern pedagogical technologies, particularly interactive methods, on the learning process. It highlights the effectiveness of various

*interactive techniques in fostering student engagement and critical thinking. The importance of teacher's professional competencies and adaptability in keeping up with the demands of modern education is also emphasized.*

**Keywords:** primary education, interactive methods, pedagogical technology, professional competence, modern teacher

Boshlang‘ich ta’lim butun ta’lim tizimining poydevoridir. Shaxsning keyingi ta’lim olishi aynan shu poydevorning nechog‘lik mustahkamligiga bog‘liq. Shuning uchun, bolalarni tarbiyalashga, ularning xarakteri, psixologik va fiziologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratishimiz kerak.

Bugungi kun taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda: “**Qanday qilib zamonaviy o‘qituvchi bo‘lish mumkin?**” degan savol tug‘iladi. Bu savolga to‘liq javob berish uchun bir qancha fazilatlarni sanab o‘tmoq zarur. Bugungi kun o‘qituvchisi – bu yuqori malakali, ijodkor, bilimdon, darsni hayotga tatbiq eta oladigan, samarali o‘qitish usullaridan foydalana oladigan, kasbiy mahoratga ega va ustida doimiy ishlaydigan inson bo‘lishi kerak (ro‘yxatni davom ettirish mumkin). Bir so‘z bilan aytganda kasbiy kompetensiyalarni mukammal egallagan mutaxassis bo‘lmogi‘lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda, pedagog, albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi lozim. Bu orqali o‘quvchini o‘quv jarayoniga faol jalb etish mumkin bo‘ladi. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonda ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi.**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng samarali turlaridan biri bu **interfaol usullardir**. Ular o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga, hodisalarga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantirishga, o‘z ustida ishslash va o‘zini baholashga o‘rgatadi. Davlatning rivoji mana shu davlat fuqarolarining qanchalik bilimli ekanligiga bog‘liqligi hech kimga sir emas. Shunday ekan ta’lim tizimida o‘quvchilarini bilim olishi birinchi o‘rinda turishini hamma yaxshi biladi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida, o‘quvchi bilan ishslashda yuqori samaraga erishishlari uchun har kuni o‘z ustilarida ishslashlari, zamon bilan hamnafas tarzda qadam qo‘ymoqlari lozim bo‘ladi. O‘qituvchi bergen har bir bilimni o‘quvchi yaxshi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o‘zlashtirishi uchun zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishi lozim. Hozirgi vaqtda boshqa ta’lim bosqichlari kabi boshlang‘ich sinf ta’lim jarayonida ham o‘qitishning zamonaviy interfaol metodlari keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. O‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir. Faqatgina o‘qituvchi pedagog emas, balki u bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf dars jarayonlarini turli xil ko‘rnishdagi metodlar, didaktik o‘yinlar orqali ularga tushuntirish va ularni psixikasiga mos dars jarayonlarni tashkil qilish orqali o‘quvchilarni darsga qiziqtirish oson bo‘ladi. Mana shunday innovatsion usulda tashkil etilgan darslar natijasida o‘quvchilar bir muammoga turli xil yechim topa olishlari, hattoki ma’lum bir kitobni o‘qiganda ham sahifalaridan turlicha mazmun kashf etishlarini ko‘ramiz.

L.N.Skatkinning “Metodika” kitobini varaqlaganda, kitobning boshida metodikaning umumiyligi masalalariga daxldor bo‘lgan, boblarida avtorning tilida ko‘plab metod so‘zi uchraydi. Lekin, xususiy masalalariga bag’ishlangan boblarida esa avtor “metod” so‘zi o‘rniga “usul” so‘zini ishlatgan. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchining soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi<sup>1</sup>.

Darslarni noan’anaviy tarzda tashkil qilishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Bunday usullarga og‘zaki, amaliy va **ko‘rgazmali metodlarni** misol qilib keltirish mumkin. Masalan: “Biz rus (ingliz) tilida so‘zlaymiz”, “Savollar shajarasi”, “Sehrli raqamlar”, “Bilimlar auksioni”, “Bilimlar poygasi” va boshqalar.

Bu metodlar orqali o‘quvchilar individual fikrlashga, jamoada ishlashga, tez fikrlashga, bir-birini tinglashga, baholash va o‘z-o‘zini real tahlil qilishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, ularning dunyoqarashi, bilim boyligi va tafakkuri kengayadi. O‘qituvchi esa bu usullar orqali o‘quvchilarning bilim darajasini

---

<sup>1</sup> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN  
FOYDALANISH Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi Sidiqova Dilora Shavkatovna Buxoro davlat universiteti  
talabasi Jabborova Go‘zal Anvar qizi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

aniqlaydi va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi va o‘quvchilarda bilim bo‘shliqlarini yuzaga kelishini oldini oladi.

Quyida ushbu usullardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

**1. “Sehrli raqamlar” usuli<sup>2</sup>** – matematika bilan ona tili fanini integratsiyalashuv jarayonini yengillashtiradi. Unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamlar ustida emas, balki raqamlar nomidagi harflar soni ustida arifmetik amallar bajariladi. Bu o‘quvchini tez fikrlashga, ona tilida o‘ylab matematik misol va masalalarni yechishga o‘rgatadi.

Masalan:  $29 - 14 = ?$

$29 - \text{bu so‘zda } 13 \text{ ta harf bor. Yigirma-7+ to‘qqiz-6= } \mathbf{13}$

$14 - \text{bu so‘zda } 6 \text{ ta harf bo‘ladi. O‘n-2+to‘rt-4= } \mathbf{6}$

Demak natija **13 - 6 = 7**

**2. “Biz rus (yoki ingliz) tilida gapiramiz” usuli<sup>3</sup>.**

Dars davomida oddiy rus yoki inglizcha iboralar ishlataladi. Bu usul shu tillar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga hamda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga yordam beradi.

Masalan, doskaga sana yozilganda:- Bugun qanday sana?- deb rus yoki ingliz tilida so‘raladi. Darsning tashkiliy qismidagi savol-javoblarni ham rus va ingliz tillarida olib borish mumkin. So‘zlar va iboralar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

**3. “Bilimlar auksioni” usuli.<sup>4</sup>**

Bu ko‘rgazmali usul bo‘lib, o‘quvchini faqat o‘qituvchi emas, balki uning o‘zi ham o‘zini o‘zi baholashi mumkin bo‘ladi. Bunda oddiy, o‘rta va murakkab savollar joylashtirilgan 3 ta konvert bo‘ladi. Har bir savolga qiymat belgilanadi. O‘quvchi qanday qiymatdagi va murakkablikdagi savolni o‘zi tanlaydi, va to‘g‘ri javob bersa, mos miqdordagi ballni (qiymatni) “yig‘adi”. Yig‘ilgan ballarni (qiymatlar) esa “bank”ka – ya’ni o‘qituvchiga topshiradi. Bu orqali dastlabki

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>3</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikning asoslari ham singdiriladi.

Masalan:

- Qo'shuv amali tarkibiy qismlari qanday? (1000 so'm) - **savol darajasi**

- oson

- Aylana bilan doira o'rtaсидаги farq nima? (5000 so'm)- **savol darajasi**

- o'rtacha

- Tezlik qanday topiladi? (10000 so'm)- **savol darajasi - murakkab**



Bu usul o'quvchining bilimini baholash, o'qituvchining esa bu bilimlar asosida talabaning holatini tahlil qilishi va kerakli choralarni ko'rishiga imkon beradi. Barcha fanlarda qo'llash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Ochilov, N.Ochilova "Oliy maktab pedagogikasi" T.-2008
2. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T.-2017
3. R.Mavlonova, N.Voxidova va N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T.-2010
4. M.H.Hakimova matematika o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulot 1-modul) o'quv qo'llanma "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2021
5. **Turdikulova Maxbuba Xudoyqulovna,Xidirova Oyjamol Normurodovna** Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni zamonaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari.
- Tojimuhhammadovna, D. S. (2025). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI BAHOLASHDA IQ TESTLARINING ROLI VA AHAMIYATI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(1), 98-105.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

7. Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnalogiyasini qo'llash.
8. Tojimukhammadovna, D. S. (2025). Pedagogical Foundations of Developing Students' Professional Competencies in Club Classes. *International Journal of Pedagogics*, 5(04), 141-145.